

MUSIQADA HAMID OLIMJONNING O'RNI

Erkinov Shahzod Vohidjon o'g'li

Anotatsiya: Xalqimizning atoqli shoiri, jamoat arbobi, mohir dramaturg va tarjimon Hamid Olimjon XX asr o'zbek mumtoz she'riyatining yorqin namoyondalaridan biri hisoblanadi. Bu serqirra ijodkorning umr yo'li qisqa bo'lgan bo'lsa ham, u haqida uzundan-uzoq gapirish mumkin. Hamid Olimjon mazmunli umri davomida o'zbek she'riyati va adabiyotida o'chmas iz qoldirdi.

Kalit so'zlar: "O'zbekiston", "O'rik gullaganda", "Kuychining xayoli", "Do'mbiraning maqtovi", "Eng gullagan yoshlik chog'imda", "Kuygay", "Shodlikni kuylaganimning sababi", "Dunyo go'zal ko'rinar senga", "Qozog'iston", professor.

Hamid Olimjonovich Azimov 1909-yil 12-dekabrda Jizzahda dunyoga keladi. U bolaligidan xalq og'zaki ijodi va baxshiyona qo'shiqlarga havasmand ulg'ayadi. Shoirning otasi Olimjon Azimovichning do'sti Fozil Yo'ldosh do'mbira chertib aytgan dostonlari adibning kelgusi ijodiga bevosita ta'sir qilgan. Uning she'rlaridagi oxangdorlik, musiqiylik va xalqchilligining ildizlari aynan xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi.

Shoirning "O'zbekiston", "O'rik gullaganda", "Kuychining xayoli", "Do'mbiraning maqtovi", "Eng gullagan yoshlik chog'imda", "Kuygay", "Shodlikni kuylaganimning sababi", "Dunyo go'zal ko'rinar senga", "Qozog'iston", "Xayolimda bo'lding uzun kun", "Baxtlar vodiysi", "Holbuki, tun...", "Janub kechasida", "Xayrlashuv", "Bahorga yetganda", "Daryo kechasi", "Siyob", "Bahor" kabi mashhur she'r, g'azal va qasidaları musiqiyliги va ohangdorligi, ichki jozibasі bilan "shoirning yurak she'ri" bo'lib dunyoga keldi.

Hamid Olimjon badiiy uslubida turli sohalarga oid so'z va terminlardan o'rinli va unumli foydalanish, ularni qo'llash mahorati, har bir so'zning asosiy lug'aviy va majoziy ma'nolarida matn ruhiga monand kelishi, go'zal uyg'unligi kuzatiladi. Shoir she'rlarida musiqa san'atiga doir do'mbira, nay, qo'shiq, navo, nag'ma, karnay, surnay, tor, parda, xonish, dutor, un, cholg'u, yalla kabi istiloh va iboralarni qo'llagan.

Professor Orifjon Ikromovning xotiralari orqali shoirning "chiroyli xirgoyi" qilishidan xabardormiz. "Do'mbiraning maqtovi" she'ri uning eng mashhur va sara asarlaridan hisoblanadi. Do'mbiraning kuyi va ta'rifi bilan o'quvchi qalbiga eng yorug', munavvar tuyg'ular oqib kiradi:

So'z boshlayin endi yaxshi-yomondin,
Ko'zlarimning nuri bo'lgan do'mbiram,
Sen qo'limda, kezib o'tdim jahondin,
Yuragimning jo'ri bo'lgan do'mbiram.

Hamid Olimjonning she'riy asarlari qalbning eng nozik qirralarini uyg'otuvchi, unga zavqu shavq baxsh etuvchi teran va dilrabo kuyga o'xshaydi. She'r, g'azal va dostonlardagi fikr va hissiyot oqimi ohangdorlik bilan uyg'unlikda inson ruhiyati va ko'ngil evrilishlarining eng munavvar manzarasiga aylanadi.

Shu sababdan ham o'zbek bastakorlari va kompozitorlari o'zining ijodini Hamid Olimjon ijodi bilan bog'laydi. Mutal Burhonovning "Samolyot", Sobir Boboyevning "Do'stinga", Komil Kenjayevning "Sevgi desam" va "Rozimisan", Habibulla Rahimovning "Sog'inganda", Irina Berlinning "Zulfiyaga", "Poiski nochi" romanlarini, Dilorom Saydaminovaning "O'zbekiston" qo'shig'i va boshqa ko'plab vokal asarlar biz e'tirof etayotgan shoirning she'rlariga yozilgan.

O'zbekiston xalq artisti, taniqli kompozitor Ikrom Akbarov tomonidan yaratilgan "Xayolimda bo'lding uzun kun" va "Eng gullagan yoshlik chog'imda" estrada qo'shiqlarini esa eshitmagan va bilmagan vatandoshlarimiz bo'lmasa kerak.

Hamid Olimjon musiqani, san'atni sevgan desak, aslo adashmagan bo'lamiz. Shoir chiroyli mazmunga munosib shakl va ohang tanlay olgan. Do'mbirani madh etar ekan, musiqa va so'z san'atining mo'jizalarini, yaxshi zamoni zavq-shavq, ehtiros va otashin muhabbat bilan kuylaydi. Uning "Kuychining xayoli" she'ri el suygan baxshi Fozil Yo'ldosh o'g'liga bag'ishlangan. Unda shunday satrlar bor:

Kuy ko'pdir, qo'shiqlar shu osmonni

Berkita oladi bulutlar qadar.

Kuy ko'pdir, qo'shiqlar millioncha jonni

Qo'zg'ata oladi, muhtaram padar!

Hulosa qilib aytadigan bo'lsam, nafaqat o'zbek adabiyoti ravnaqiga, balki, milliy musiqa san'atimizga ham beqiyos hissa qo'shgan. Biroq shoirning hali kuyga solinmagan, qirralari o'rganilmagan ijodiy me'rosi hali mavjuddir. Ular yosh ijodkorlar, olimlar va adabiyotshunoslar uchun ilhom va ilm manbai ekanligi, kelajakda Hamid Olimjondek zabardast shoirlarimizning she'rlariga go'zal va boqiy qo'shiqlar yaratilishiga, ilmiy izlanishlar olib borilishiga muhim manba bo'lib xizmat qiladi, albatta!

ADABIYOTLAR:

1. Karimov.S O'zbek tilining badiiy uslubi. Toshkent -1992, 33-bet.
2. Hamid Olimjon "Muqanna" Toshkent- 1992, 64-bet.
3. Hamid Olimjon Tanlangan asarlar Toshkent-2019. 65-bet.
4. Hotam Umirov Vatan betakror, kuychisi betakror. So'z xiyoboni. Toshkent-2020. 155-bet.
- H. Jamolxonov Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent-2005. 2001-bet. 938
5. Karimov N. Hamid Olimjon. Toshkent, „Yosh gvardiya“, 1990.
6. Karimov N. Hamid Olimjonning poetik mahorati. Toshkent. „Fan“, 1964.
7. Mamajonov S. Shoir dunyosi. Toshkent. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.
8. Karimov N. va boshqalar. 20 asr o'zbek adabiyoti tarixi. -T.: „O'qituvchi“, 1999.
9. Abdurahonov A. Alangaga aylangan uchqun. „Kamalak“ adabiy-tanqidiy ilmiy to'plamda. -T. 1990.
10. Azimov S. Hamid Olimjon abadiyati. T., 1967;
11. Sen elimning yuragida yashaysan [H.Olimjon haqidaxotiralar], T., 1973;
12. Mamajonov S, Shoir dunyosi, T., 1974;
13. Karimov N., Go'zallikningolmos qatralari [H.Olimjon lirikasi], T., 1979;
14. Karimov N., Hamid Olimjon. Shoir hayoti va ijodidan lavhalar. T., 1979.
15. Naim Karimov. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000.